

**“MATBUOT TARQATUVCHI” AKSIYADORLIK KOMPANIYASI**  
**aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi**  
**1-sonli BAYONNOMASI**

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazilgan sana: 2025 yil 17 yanvar

Bayonnoma rasmiylashtirilgan sana: 2025 yil 20 yanvar

“MATBUOT TARQATUVCHI” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda “Kompaniya” deb yuritiladi) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025 yil 17 yanvar soat 11-00 da, evote.uz elektron portalida Amir Temur 1-tor ko'chasi, 2-uy manzilida, Kompaniya ma'muriy binosida o'tkazildi.

“MATBUOT TARQATUVCHI” aksiyadorlik kompaniyasi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan aksiyadorlar va vakillarga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar soni 661 193 dona.

Jami ovoz beruvchi aksiyalar soni 938 702 dona.

**Yig'ilish kворumi 70,43 foiz.**

Aksiyadorlar reestri 2025 yil 13 yanvar sanasiga tuzilgan

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi raisi – Kompaniya Kuzatuv kengashi raisi Ye.E.Mironov

Kotib A.B.Kasimov

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlarni ro'yxatga olish masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali amalga oshirildi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali bo'lib o'tdi.


Kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali amalga oshirildi.

**UMUMIY YIG'ILISH KUN TARTIBI**

1. Umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash.
2. “Matbuot tarqatuvchi” aksiyadorlik kompaniyasining 2024 yil moliya-xo'jalik faoliyati yakuni bo'yicha majburiy tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tasdiqlash va ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash.
3. “Matbuot tarqatuvchi” aksiyadorlik kompaniyasining Kuzatuv kengashi yangi tarkibi azolarini saylash.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yich barcha hujjatlar masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> ga to'liq joylashtirilgan va umumiy yig'ilish ishtirokchilari tanishishlari uchun imkoniyat mavjud.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar to'liq ko'rib chiqilib, aksiyadorlar elektron ravishda ovoz berdilar.



Elektron ravishda ovoz berish yakuniga ko'ra natijalar quyidagicha:

| t.r | Kun tartibidagi masalalar bo'yicha   | Yoqlay man                   | Qarshi man | Betaraf man |
|-----|--|------------------------------|------------|-------------|
| 1   | Umumiy yug'ilish reglamentini tasdiqlash   | 661 193                      |            |             |
| 2   | "Matbuot tarqatuvchi" aksiyadorlik kompaniyasining 2024 yil moliya-xo'jalik faoliyati yakuni bo'yicha majburiy tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tasdiqlash va ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini 30 mln. so'mgacha belgilash | 661 193                      |            |             |
|     | "AUDIT EXPERT GROUP" MChJ auditorlik tashkiloti  | 0                            |            |             |
|     | "BURCH" MChJ auditorlik tashkiloti   | 0                            |            |             |
|     | "FIDUCIAL AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti  | 661 193                      |            |             |
| 3   | "Matbuot tarqatuvchi" aksiyadorlik kompaniyasining Kuzatuv kengashi yangi tarkibi a'zolarini saylash.  | (jami kumulyativ ovoz soni ) |            |             |
|     |  | <b>Yoqlayman</b>             |            |             |
|     | Xodjayev Sayfullaxon Saydulla o'g'li   | 619 420                      |            |             |
|     | Axmedov Amin   | 507 485                      |            |             |
|     | Kasimova Dilbar Shaislamovna   | 771 050                      |            |             |
|     | Raxmatov Shuxrat Ikramovich  | 0                            |            |             |
|     | Mironov Yevgeniy Eduardovich   | 724 670                      |            |             |
|     | Xasanov Maxammad Karim Muratovich  | 683 340                      |            |             |


Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://vote.uz> orqali to'liq ko'rib chiqilib,

**QAROR QILINDI:**

1. Umumiy yug'ilish reglamenti tasdiqlansin.
2. "Matbuot tarqatuvchi" aksiyadorlik kompaniyasining 2024 yil moliya-xo'jalik faoliyati yakuni bo'yicha majburiy tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotining xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori 30 mln. so'mgacha va auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun "FIDUCIAL AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti tasdiqlansin.
3. "Matbuot tarqatuvchi" aksiyadorlik kompaniyasi Kuzatuv kengashi a'zolariga quyidagi nomzodlar 3 (uch) yilga saylansin:
  1. Xodjayev Sayfullaxon Saydulla o'g'li
  2. Axmedov Amin
  3. Kasimova Dilbar Shaislamovna
  4. Mironov Yevgeniy Eduardovich
  5. Xasanov Muxammad Karim Muratovich

Yig'ilish raisi

Kotib



Ye.E.Mironov

A.B.Kasimov